

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI TARBIYALASH JARAYONIDA MAKTAB-OILA- MAHALLA HAMKORLIGI

Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar tarbiyalashda maktab oila mahallafaoliyatini hozirgi holati yoritilgan. Shuningdek, hamkorlikdagi faoliyatning foydali jihatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ota-ona, oila, maktab, mahalla, o'zaro hamkorlik, individual suhbat.

Аннотация: В статье описано современное состояние школьно-семейной соседской деятельности в обучении учащихся общего среднего образования. Также обоснованы полезные стороны совместной деятельности.

Ключевые слова: родители, семья, школа, соседство, взаимное сотрудничество, индивидуальная беседа.

Abstract: The article describes the current state of schoolfamily neighborhood activities in the education of students in general secondary education. Also, the beneficial aspects of cooperative activities are justified.

Key words: parents, family, school, neighborhood, mutual cooperation, individual conversation.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan mamlakatimizda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi va unda shaxs tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatuvchi milliy qadriyatlar yil sayin qadr topib, nufuzi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi davlatimiz tomonidan ijtimoiy institutlarga har tomonlama e'tibor qaratilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan mustaqillik bergan imkoniyat tufayli qo'lga kiritilgan milliy qadriyatlarning qayta tiklanayotganligidir. Shu ma'noda olib qaralganda, ijtimoiy institutlar va uning muammolari bo'yicha ilmiy asoslangan tadqiqotlarning yuzaga kelishi dolzarb ahamiyatga molik bo'lib qolaveradi. Yosh avlodni tarbiyalashdek buyuk ishga Prezidentimizning ta'lim sohasiga alohida e'tiborlarini qaratganliklari

har bir fan o'qituvchisidan o'z faoliyatiga jiddiy yondashishini talab etmoqda. Davlatimiz rahbarining qator qarorlari asosida yoshlar bilan ishlash negizida mahalla, maktab va oilaning o'rni haqida fikr yuritilgan. Kelgusidagi rejalarda o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish ko'zda tutiladi [1].

“Oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligi” konsepsiyasining asosiy maqsadi yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqining boy milliy, madaniy, tarixiy an'analari, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiya ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini



**Maxbuba
EG
AMBERGANOVA,
Xalqaro kimyo
universiteti 2-bosqich**



**Ilmiy rahbar: Nargiza
NARZIYEVA, Xalqaro
kimyo universiteti
Samarqand filiali
dotsenti**



ta'minlash, ota-onalar, pedagoglar va mahalla faollarining umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatini oshirish, respublika fuqarolari orasida milliy-mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirishdan iboratdir. Konsepsiyada jamiyat taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy negizi bo'lgan milliy va umuman insoniy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy tarbiyaning o'zaro aloqasi hamda muhim yo'nalishlari belgilab olingan. Chunonchi, mahalla, oila va ta'lim muassasasi hamkorligida milliy tarbiya yo'nalishida yoshlarning o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy-mafkuraviy ongliklik, milliy odob, fidoyilik kabi fazilatlarni o'zlashtira olishlari zarurligi ko'rsatilgan bo'lsa, umuminsoniy yo'nalishda hamkorlikdagi pedagogik faoliyatning huquq, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigiyenik va boshqa tarbiya sohalarini qamrab olishi muhim ekanligiga e'tibor qaratilgan [2].

Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi quyidagi tamoyillar asosida yo'lga qo'yiladi:

1. Ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;
2. Tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi;
3. Hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati;
4. Faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;
5. Hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.

O'zbekistonda sog'lom avlodni tarbiyalashda oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligini ta'minlash samaralarning garovidir. Bu borada hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalishlar quyidagilardan iboratdir:

- Oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligini ta'minlashning huquqiy bazasini takomillashtirish, hamkorlikning kuchayishiga qaratilgan uslubiy ta'minotni mustahkamlash;

- Oilada yoshlar va ota-onalarning ijtimoiy faolligini oshirish; O'quvchi yoshlarga ta'lim berish, ularni tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni qiziqishlari bo'yicha kasbga yo'naltirish;

- Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni

moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- Voyaga yetmagan o'smirlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va nazoratsizlikning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish; Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga keng jalb etish orqali sog'lom oilaga tayyorlash; Barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni

mazmunan

takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish mexanizmini yaratish;

- Sog'lom avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish[3].

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Prezidentimizning aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlari bunday xayrli ishlarning izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami tibbiy-ijtimoiy islohotlar aholiga zamonaviy tibbiy xizmatni yaqinlashtirish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, ekstragenital kasalliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda yuz berayotgan o'zgarishlar oila, mahalla, maktab hamkorligi yo'nalishida bola tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, maktabning asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, oila jamiyatimizning asosiy bo'g'inidir. Haqiqatan ham oila - bu jamiyatni tashkil etuvchi katta kuchdir. 2012-yilga Birinchi prezidentimiz tashabbusi bilan "Mustahkam oila" yili deb nom berilishi va shu asosda azal-azaldan hayotimizning tayanchi va suyanchi bo'lib kelgan, jamiyatimizning hal qiluvchi bo'g'ini bo'lmish oila institutini yanada rivojlantirishga qaror qilishi hayot abadiyligini, har qaysi insonning baxt-u saodati, kelajagi, orzu-intilishlarini mujassam etadigan oilani yanada

mustahkamlash va farovonligini oshirish, bu borada olib borayotgan barcha ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishdek olijanob rejalarni amalga oshirish ko'zda tutilgani hammamizga yaxshi ayon.

Kelgusida umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish nazarda tutilgan [4]. Oilalarning mustahkamligi va turmushning obodligi kelajak avlodning komil inson bo'lib yetishi uchun tayanch hisoblanadi. Ushbu yilda ham ishlab chiqilgan Davlat dasturi asosida hamkorlik ishlarini tashkil etish zarur. Bunda oilaning ham, maktab va mahallaning ham tashabbuskorligi va o'zaro hamjihatligi talab etiladi. Oila kabi mahalla ham jamiyatni shakllantirishning ajralmas qismidir.

Vatanimiz tarixi guvohlik beradiki, o'zbek jamiyatida jamoa bo'lib yashashning sinalgan shakli mahalladir. „Mahalla” so'zi arabcha „Mahallun” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, aholi yashaydigan joy, guzar, uy-joy mavzelari degan ma'noni anglatadi. Mahalla shaharlar ichidagi kichik hududiy birlik bo'lib, o'tmishdan meros bo'lib kelmoqda. Mahalla-yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Bir bolaga yetti mahalla ota-ona, degan naqldan kelib chiqib, kelajak avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish jarayonini amalga oshirish borasida kichik Vatan bo'lmish mahallaning oldida quyidagi vazifalar turadi: mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashishi va oqilona yechimlarini topishda faollik ko'rsatilishi, mahalla o'z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlab va farzandlarining bilim va tarbiya olishlariga boshqosh bo'lishi, ma'nau nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralarini ko'rish, mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilishini qo'llab-tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyada hamjihatlikdir [5].

Ta'lim-tarbiya masalasi murakkab bo'lib, bunday ulkan mas'uliyatli, sharaflı ishni oila, mahalla, maktab va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o'rin egallaydi. Mahallaning ustunligi shundaki, bu yerda ko'p yillar davomida birga yashagan, bir-birini bilgan,

quvvatlash, ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, mafkuraviy ongllilik, baynalmilallik kabi xislatlarni singdirishni har tomonlama rag'batlantirish; yoshlarga diniy mazhablar va sektalar, aqidaparastlikning mohiyatini to'g'ri anglab yetishiga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'gitlarini singdirib borishga jamoatchilikni safarbar qilish; mahalla yig'inlarida milliy davlatchilik va milliy mafkura g'oyalarini, respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida erishilgan yutuqlar to'g'risida turli tadbirlar tashkil qilishdir.

Bolani tarbiyalashda maktab, mahalla, oila hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligiga erishish va oldimizga qo'ygan maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. „Qush uyasida ko'rganini qiladi” deyilganidek, bola ham oilasida qanday tarbiya ko'rsa, jamiyatda ham, mahallada ham shuni ko'rsatadi. Ulug' donishmandlardan biri: „Agar sen bir yilni o'ylasang bug'doy ek, hosilni kuzning o'zidayoq olasan. O'n yildan keyinni o'ylasang, bog' yarat, uch-to'rt yil o'tib, meva beradi. Agar sen kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi tarbiya ber”, - degan ekan. Bu bilan nima demoqchi, ya'ni kelajaging bolang qo'lida, sen unga qanday tarbiya bersang, shuni o'zingga qaytaradi.

Tarbiyada talabchanlik, ota-ona va katta yoshdagi kishilarning o'zaro ahilliklari, kichiklarga g'amxo'rlik, osuda turmush va halol mehnat faoliyati oilaviy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Bundan tashqari har bir oilada farzand tarbiyasida aniq bir maqsad bo'lishi kerak. Eng muhimi, farzandlarimizni nafaqat bo'lajak ota-ona yoki aka-uka, opa-singil sifatida, balki jamiyatning haqiqiy fuqarosi, kelajagiga ishonuvchi, unga sadoqat bilan xizmat qiluvchi inson, vatanparvar posbon sifatida ham tarbiyalashga e'tibor berishimiz lozim. Oilada doimo tinchlik bo'lishi, bo'sh vaqtini faol tashkil etish, madaniyat, san'at maskanlariga oilaviy sayohatlar uyushtirish - oila barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Oilada bolaning to'g'ri sinagan, tanigan kishilar istiqomat qiladilar. Ular har bir oiladagi muhitni va har bir bola tarbiyasini, ota-onasini mahallada tutgan o'rni, mavqeyi hamda imkoniyatlarni yaxshi biladilar.

Oila, mahalla, maktab hamkorligi rejasini tuzish:

- Tarbiyaviy ishlar o'tkazish dasturi va shu dastur asosida mahallada yashovchi har bir bola

bilan bu tarbiyaviy ishlarni olib borish;

- Mahallada bolalar dam olishlariga, qiziqarli ishlar bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratib berish;

- Mahallada tarbiyaning ta'sirini oshirish, kabi ko'plab ishlarni olib borish, o'quvchilar har tomonlama axloqli tarbiya topishlariga keng imkoniyatlar yaratadi.

Har bir bola maktab ostonasiga qadam qo'yar ekan, o'zining kelajakdagi qiladigan ishlarini jajji ongida tasavvur qiladi. Maktabda olgan bilimlari, ta'lim-tarbiyasi, bu ishlarning amalga oshishida albatta o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Oila, mahalla, maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga amal qilinganida samaradorlik yanada yuqoriroq bo'ladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida hamkorlik harakatlarining ish birligi;

- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi;

- hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati.

- ota-ona farzandining maktabgacha bo'lgan davrdagi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash. Bularning barchasi bolaning yetuk inson bo'lib voyaga yetishida muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Tarbiyaviy, tashkiliy, uslubiy ishlarni hayotga tatbiq etishda har bir fuqaro, oila, mahalla va maktab o'zining shart-sharoiti, atrof-muhitni tahlil qilib:

- o'quvchi, o'qituvchi, ota-ona;

- maktab, oila, mahalla, jamoatchilik;

- oila, mahalla, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab yo'nalishlariga amaliy tarbiya ishlarini hayotga tatbiq etib va shu kun talabi darajasida targ'ibot ishlarini olib borilsa, natijada tarbiya masalalari bo'yicha ijobiy yutuqlarga erishish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ma'lum qilamizki, yosh avlodni yaxshi xulqli, vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga ahamiyat berish lozim. Chunki bularsiz tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Mahalla, maktab, oila hamkorligining ijobiy tomonlari shundaki - bolaning dunyoviy bilimga ega bo'lishi, fikrlarning keng bo'lishi, noto'g'ri ta'sirlarga berilmasligi, uyda, maktabda bo'sh vaqtini unumli o'tkazishni ta'minlashga va xalqiga, jamiyatga foyda keltiradigan shaxs bo'lib ulg'ayishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги фармони // Халқ сўзи. - Тошкент, 2019 йил 30 апрель. № 88 (7318). -1б.

2. Мусурмонова О. “Маънавий кадриятлар ва ёшлар тарбияси” Т.: Ўқитувчи, Б. 35.

3. Kamalova A. O. “The role of game technology in the formation of organizational qualities in general secondary school students”. Eurasian journal of academic research. Volume 1, Issue 01. ISSN 2181-2020 15 April 2021. 154-bet.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” фармони. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжати. - Т.: 2017 йил, 6-сон, 70-модда.

5. [Joyce L. Epstein](#). “School, Family, and Community Partnerships”. New York, 2011. - 76 p.